

2. Keith, A. (2011). ‘Pragmatics in the (English) lexicon’, in K. Allan and K. Jaszczołt (eds), *The Cambridge Handbook of Pragmatics*. Cambridge: Cambridge University Press

TILLAR TARAQQIYOTINING AYRIM MASALALARI

Qo'ldasheva Shaxnoza Akramovna,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), katta o'qituvchi,
O'zDJTU, Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz va nemis tillaridagi so'z strukturasi va ma'nosidagi divergentsiya xodisasi leksik, grammatik va etimologik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Katta e'tibor til va jamiyat o'rtasidagi aloqalarning til lug'at boyligida mos ravishda tegishli o'zgarishlarning sodir bo'lishiga olib keladi.

Kalit so'zlar. til, taraqqiyot, madaniyat, divergentsiya, konvergentsiya, evolyutsiya, etimologiya.

Kirish. Til tarixi bilan birgalikda, tarixiy bilimlarning boshqa sohalarida bo'lganidek, umumiy nazariy fan (uni shartli ravishda “tamoyillar haqidagi ta'limot” deb atash maqsadga muvofiq) mavjud bo'lishi kerak” deb boshlaydi o'z mashhur asarini G.Paul [1]. Tamoyillar haqidagi ta'limot til tarixini o'rganish metodologiyasining asosini tashkil etishi kerak. Til tarixiy jihatdan o'rganilgandagina u xaqiqiy ilmiy jihatdan o'rganilgan bo'ladi. [1] Tildagi o'zgarishlarning sababchisi, uning oqibati yoki natijasidan manfaatdor shaxs mana shu tilda so'zlashuvchi kishilardir. Tildagi so'zlar va shakllarni shu tilga xos bo'lgan shakl yasashning birlamchi qonunlari bo'yicha joylashtirilsa va o'ziga xos derivatsion paradigmasi yaratilsa, bunda o'ziga xos, keng tarmoqlangan tizim yaratiladi. Bu tizimning har bir tarmog'i o'z navbatida o'z tarmoqchalariga ega bo'ladi.

Asosiy qism. Har bir holatda kelib chiqishi bo'yicha etimologik jihatdan bir-biriga qarindosh bo'lgan so'zlarni ajratish bilan shug'ullanadigan fan analitik grammatikadir. Bunday tahlil, so'zlarning turli kategoriylar bo'yicha tuslanishi

natijasida birlamchi – umumiylar o’zakdan rivojlangan va boshqa o’zakdan rivojlangan ayrim shakllarni ko’rib chiqar ekan, til tizimida hech qanday sakrash hodisasining bo’lmasligi va barcha shakllar o’rtasida chambarchas bog’liqlik holati kuzatilishi haqida dalolat beradi.

Inson ongi esa qat’iy grammatik qonuniyatlargacha har doim ham bo’ysuna olmaydi. Divergentsiya natijasida paydo bo’lgan o’zakdosh va boshqa o’zakdan yaratilgan so’zlar orasidagi mavjud chegara, yillar o’tgan sari inson ongida yovilib ketib, begona so’zlar, ayrim fonetik o’zgarishlar natijasida o’zakdoshlar kabi qabul qilina boshlaydi. Oqibatida analogiya o’z ta’sir doirasiga boshqa so’zlarni ham tortib oladi. Bu erda grafik va fonetik shakl o’rtasidagi yaqinlik asosiy rolb o’ynaydi. Masalan, ingliz tilining Amerika variantida kuz “fall” oti bilan beriladi. Bu so’zning etimologik jihatdan tahlil qilmoqchi bo’lgan tilshunoslarning ko’pchiligi “Fall” so’ziga mos keluvchi fe’l “to fall”dan kelib chiqqan deydi. Bunga motivatsiya sifatida “To fall” (qulamoq, yiqilmoq, to’kilmoq) – demak kuz - barglar to’kiladigan fasl, shuning uchun “fall”ni “to fall”dan kelib chiqqani asoslanadi, deb o’ylashadi. Bu erda keltirilgan “Fall” “qulash” so’zi anchayin qadimgi so’z bo’lib, u umum-hind-evropa tilida ham mavjud bo’lgan. Fe’l esa shu otdan keyinroq paydo bo’lgan. Demak, bu erda ot fe’ldan emas, balki fe’l otdan paydo bo’lgan va tabiiy-ki “Kuz” ma’nosini bildiruvchi fe’lga hech qanday aloqasi yo’q. Bunga misol qilib, nemis tilidagi: Schlag (zarba) – schlagen (o’rmon), lauf (yogurish) – laufen (yogurmoqlarni misol tariqasida keltirishimiz mumkin. Albatta, divergentsiya ta’sirida fe’ldan konversiya usulida yasalgan so’zlar ham kam emas, masalan: to break – a break; to finish – a finish va hokazolar.

Ayrim holatlarda esa etarli manbalarning yo’qligi tufayli ot fe’ldan yasalganmi yoki fe’l otdan yasalgan-mi, buni aniqlash qiyin bo’ladi. Masalan, nemis tilida betragen (yakunlamoq) > Betrag (yakun); fortragen (ma’ruza o’qimoq) > fortrag (ma’ruza). Ingliz tilida, to book (buortma bermoq) – a book (buortma). Bu so’zning birlamchi “book” so’ziga umuman aloqasi yo’q, deb bo’lmaydi, chunki buortma, biror-bir joyga qayd qilingandagina buortma kuchiga ega bo’ladi, qayd

qilinadigan joy esa odatda qog'ozlarning daftar shaklida tikilgan varianti qaydlar kitobi shaklida bo'lishi mumkin.

So'zning birlamchi ma'noli so'zdan rivojlanganmi yoki oddiy, boshqa so'zdan kelib chiqqanligini aniqlash uchun yangi so'zga eski qo'shimchalarni qo'shish yordamida aniqlash mumkin. Agar substitutsion test ijobiy natija bersa so'z o'zakdosh bo'ladi va agar substitutsion test salbiy natija bersa bu so'z begona o'zakdan rivojlangan bo'ladi. Masalan, nemis tilidagi -ig (-ag) qo'shimchasi sifatdan sifat yasovchi qo'shimcha bo'lib quyidagi so'zlarni yasagan: gläubig (ishonuvchan); streitig (janjalkash); geläufig (yuzaki); ammo shu bilan birga glaube (e'tiqod); streit (baxs) va Lauf (yugurish) kabi so'zlar ham mavjud. Ammo shu bilan birga írrig (xato) so'zi ham borki, uni irre (aqlsizlik) so'ziga bog'lab bo'lmaydi. Balki ularning ma'nosini bog'lab turgan aloqa yo'qolgandir.

Har qanday til faoliyatiga asos bo'lib tasavvurlar guruhining qanday tashkil etilganligi tartibi xizmat qiladi. Uzusning o'zgarishiga sabab bo'lib oddiy til faoliyati xizmat qiladi. Uzusning o'zgarishi diskursning maqsadi, kommunikativ intensiya va nutq faoliyati ishtirokchilarining psixologik, sosiolingvistik va pragmalingvistik belgilariga bog'liqdir. Til materialining so'z ma'nolarida kuzatilgan divergentsiyaning sababini aniqlash uchun amalga oshiriladigan etimologik tahlili ko'p holatda so'zlarda ma'nolarida ro'y bergan turli o'zgarishlar o'sha til muloqot vositasi bo'lib xizmat qilgan jamiyatdagi turli ijtimoiy-madaniy omillarda bo'lган turli voqea – hodisalari natijasida sodir bo'lishi ma'lum bo'ldi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, til jamiyatdagi ro'y beradigan turli voqealarni oyna kabi aks ettiradi va zarur hollarda ma'no kengayishi, torayishi yoki turli birikmalar paydo bo'lishi mumkin. Ma'lum-ki, bu narsalar esa tilshunoslikning lingvo madaniyatshunoslilik deb atalmish yo'naliishing ob'ekti bo'lishi mumkin.

Xulosa

Tilning lingvomadaniy jihatlari xaqida qarashlar evoliotsiyasining tadqiqi shu narsani ko'rasatadi-ki, tilshunoslар, madaniyatshunoslар va psixolingvistlar til, borliq va inson madaniyati, aniqrog'i, mana shu inson tegishli bo'lган etnosning

madaniyati o'rtasidagi munosabatlarning tabiatini o'rganishga katta e'tibor qaratmoqdalar. Bu turdag'i tadqiqotlarda ko'tarilgan masalalarni umumlashtirgan holda quyidagi yo'naliishlarga tegishli ekanligini sezish qiyin emas.

1. Divergent belgilarni tahlil qilishda tilshunoslar tomonidan asosiy e'tibor etnik madaniyat va dunyoni idrok etish o'rtasidagi aloqaning tabiatiga qaratilishi kerak. Jamiyatda mavjud bo'lган til va madaniyat o'rtasida aloqaning muqarrarligi va uning tabiatи divergent belgilarni tahlil qilishda diqqatga molikdir. Muayyan bir xalq madaniyati shu xalq so'zlashadigan tilning tipi, grammatik va semantik komponentlarining mohiyati divergent belgilardagi rivojlanish jarayoni bilan belgilanadi.

2. Til lug'at tarkibi har qanday etnolingvomadaniy muhitda ham mana shu tilda so'zlashuvchi xalq madaniyatining xarakterinini to'laligicha belgilab bera olmaydi. Lingvomadaniy sohadagi tushuncha va hodisalarni o'rganuvchi yana bir nuqtai nazarga ko'ra til bilan madaniyatni aslo qiyoslab bo'lmaydi. Ulardagi divergent belgilar bir birini taqozo etmaydigan mohiyat e'tiboran avtonom hodisalardir.

3. Yana bir nuqtai nazarga ko'ra til o'zining turli qatlamdagi birliklari orqali cheklangan ko'lamda inson uchun voqelikni bilish uchun qurol bo'la oladi. Muayyan bir jamiyatda aloqa vositasi bo'lib xizmat qilayotgan tilning o'zi va unda mavjud birliklarning tabiatи mohiyat e'tiboran shu jamiyatda mavjud, qabul qilingan madaniyatning tipi xarakteri bilan belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Пауль Г. Принципы истории языка. - М., 1960. - С. 25.
2. Серебренников Б.А. (отв. ред.) Принципы описания языков мира. – М., 1976, 400 с.
3. Ярцева В.Н. (отв. ред.) Лингвистический энциклопедический словарь. – М., 2002, 600 с.
4. Qo'ldashev A. Tilshunoslikda tarixiylik tamoyili. Monografiya. Toshkent, 2020. 296 bet.